

O‘ZBEKISTON IJTIMOYIY TARMOQLARIDA YOSHLAR NUTQI**Umurzakova Kommuna Xursanovna**

Qo‘qon universiteti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek madaniyatida nutqning ahamiyati haqida batafsil ma’lumot berilgan. Kommunikativ nutq madaniyati muammosi va uni bartaraf etish yo‘llari haqida ta’kidlangan. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarda yoshlarning nutqi xususida qayd etilgan.

Kalit so‘zlar: nutq, madaniyat, ijtimoiy tarmoq, yoshlar, jargon, til, mafkura, virtual muloqot

Kirish. Bolaning muloqotga bo‘lgan ehtiyojini qondirishning asosiy usuli bu nutqdir. Buning uchun bolani bilim olishga bo‘lgan intilishini, shuningdek, ongli ravishda bunga harakatlarini qo‘llash va ona tilida gaplashish istagini rag‘batlantirish zarur. Bunday sharoitda o‘spirinlarning nutq madaniyatini umumta’lim maktabida va undan keyingi ta’limda shakllantirish vazifasi ayniqsa dolzarb bo‘lib qolmoqda.

O‘zbek madaniyatida oila bolaning shaxs bo‘lib voyaga yetishishida muhim rol o‘ynaydi. Oilaviy an’analar va urf-odatlar kelajak avlodning Vatanga muhabbat, o‘z madaniyati va millatiga hurmat kabi fazilatlarini belgilab beradi. Bugungi kunda, axborotlashtirish va globallashuv davrida, ota-onalar va keksa avlod vakillari oldida yoshlarning ona tili – o‘zbek tiliga bo‘lgan munosabatlarini o‘zgartirish vazifasi yanada keskinroq turibdi. Badiiy adabiyotni o‘qishga bo‘lgan muhabbatni oshirish, ba’zi tarixiy so‘zlar va iboralarning ma’nosini tushuntirib berish, mamlakat, shahar, mahalla tarixini o‘rgatib borish ham zarur. Til me’yorlari filologlar tomonidan ixtiro qilinmagan, ular butun xalq adabiy tili rivojlanishining ma’lum bir bosqichini aks ettiradi. Til me’yorlari farmon bilan kiritilishi yoki bekor qilinishi mumkin emas; ularni ma’muriy usul bilan isloh qilish mumkin emas. Talaffuz normalariga va so‘zlarni ishlatish qoidalariga beparvolik, jargon va vulgarizmlardan foydalanish, asossiz chet el so‘zlarini ishlatish nutqni ifloslantiradi, adabiy tilni yo‘q qiladi va bu oxir-oqibat, tilshunoslar aytganidek, millatning o‘limiga olib keladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Mamlakatimizda nutq madaniyatining pasayish muammolari, jargon va xalq tilining tarqalish tendensiyasi dolzarbdir, bunga alohida e’tibor berilmoqda, chunki nutq madaniyati ijtimoiy ahamiyatga ega. Kommunikativ nutq madaniyatini shakllantirish muammosi turli yosh guruhlarida turlicha ifodalanadi va asosan o‘spirin maktab o‘quvchilariga taalluqlidir. Binobarin, barcha ta’lim muassasalari va ularda ishlayotgan o‘qituvchilarning muhim vazifasi adabiy tilga asoslangan og‘zaki muloqot madaniyatini shakllantirish va yuksaltirish uchun qulay sharoit yaratishdir. Bugun o‘zbek tilini takomillashtirish bo‘yicha ulkan o‘zgarishlar yuz bermoqda va asosiy muammolardan biri bu nutqimizda chet el so‘zlaridan tobora ko‘p foydalanish bo‘lib qolmoqda. Jargon so‘zlar madaniy nutqni siqib chiqarmoqda va ommaviy madaniyat tufayli butun xalq tilida iz qoldirmoqda. Ma’lum bir yoshdan boshlab ko‘pchilik "ko‘cha" tilidan faol foydalanadi, ammo vaqt o‘tishi bilan ular adabiy tildan tez-tez foydalanishni boshlaydilar. Yoshlar jargonida so‘z bilan “o‘ynash”, hayotga alohida munosabatda bo‘lishga, hamma to‘g‘ri, barqaror, zerikarli,

odatiy narsalarni rad etishga asoslangan. Afsuski, ko‘p holatlarda keksa avlod vakillari ham jargonga qaramlikni saqlab qolmoqda.

Natija va tahlil.

Nutqning zamonaviy shakli yoshlarning nutq madaniyati darajasiga alohida e‘tibor berishni talab qiladi. Biroq so‘nggi yillarda yoshlarning nutqi va umumiy madaniyati sezilarli darajada o‘zgardi, axloqiy me‘yorlar e‘tiborsiz qoldirila boshlandi, bu esa jamiyatning tanazzulga uchrashiga olib kelishi mumkin. Shuni ta‘kidlash kerakki, yoshlar orasida ona tilini bilish darajasi, adabiyotga qiziqish pasaymoqda. Zamonaviy yoshlar va katta avlodning aksariyat qismi kitob o‘qishni internetning ijtimoiy tarmoqlarida “onlayn” bilan almashtirib, kitob mutolaasiga juda oz vaqt ajratishmoqda.

Bola nutqini rivojlantirish, eng avvalo, til qobiliyatini shakllantirishni talab qiluvchi muloqot shakllarini rivojlantiruvchi demakdir (A.A.Leont‘ev). Ilmiy tadqiqotlar va yo‘nalishlar tahlili maktabgacha yoshdagi bolalar nutqining turli tomonlarini rivojlantirish xususiyatlari hamda ularning ilmiy adabiyotda o‘rganilganlik darajasini aniqlash imkonini beradi. Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish masalalarini tadqiq etish O‘zbekiston Respublikasida o‘tgan asrning 50-yillarida boshlangan. Maktabgacha ta‘lim sohasidagi birinchi fan nomzodi A.V.Nikolskaya mahalliy millat bolalariga rus tilini o‘qitish zarurligi masalasini ko‘tarib chiqdi. U tomonidan o‘tkazilgan sinov tadqiqotlari (1958–1960-yillar) natijasida maktabgacha katta yoshli o‘zbek bolalariga ruscha og‘zaki nutqni o‘rgatish metodikasining asosiy mazmuni belgilangan va uning asosiy masalalari ishlab chiqilgan. Inson tajribasining tarixan shakllangan mazmuni so‘zli shaklda umumlashtirilgan, uni bayon etish va o‘zlashtirish esa ushbu jarayonda nutqning ham ishtirok etishini nazarda tutadi. Nutq bolaga inson madaniyatining barcha yutuqlariga yo‘l ochadi. Umuman, shaxsning va barcha asosiy psixik jarayonlar (qabul qilish, fikrlash va boshq.) ning shakllanishi ham bolada nutqning rivojlanishi bilan bog‘liqdir. Bolaning psixik jihatdan shakllanishida nutqning alohida o‘rin tutishi uning turli bosqichlarda rivojlanishiga yordam beruvchi shart-sharoitlar va omillarni bilishni juda muhim qilib qo‘yadi. Nutqning rivojlanishi bilan harakatlanuvchi kuchlar haqidagi masala shiddat bilan sakrash tarzida ro‘y berishi tufayli ham, muhim ahamiyat kasb etadi. Bolalarda nutq rivojlanishini rag‘batlantiruvchi yoki unga to‘sqinlik qiluvchi kuchlarni aniqlash ushbu jarayonga aniq maqsadni ko‘zlagan holda pedagogik ta‘sir ko‘rsatishni tashkil etish kalitidir.

Virtual muloqotning avj olishi jonli muloqotga bo‘lgan ehtiyojning pasayib ketishiga sabab bo‘lmoqda. Shuni aytish kerakki, bugungi kunda jamiyatimizda o‘zining doimiy ko‘rishib turadigan yaqinlari bilan ham ijtimoiy tarmoqlarda muloqot qiluvchi insonlar ko‘pchilikni tashkil etmoqda. Bunday muloqot esa real voqelikdan ayri holda kechadi va inson o‘zining hissiy kechinmalarini tasvirlab bera olmaydi. Bu esa insoniy tuyg‘ularning yo‘qolib borishiga zamin yaratadi. Yaqin o‘tmishimizda insonlar o‘rtasida “uyga keling” deb taklif qilingan bo‘lsa, endilikda “telegram kanalim”ga tashrif buyuring, “Facebookdagi sahifam”ga kiring degan takliflardan ajablanmay qo‘ydik. Shu nuqtai nazardan qaraganda, shiddatli global o‘zgarishlar davrida yoshlar ong-u shuurini internet tizimining ijtimoiy tarmog‘i orqali kirib kelayotgan zararli g‘oya va ta‘sirlardan samarali va ishonchli himoyalash tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa o‘qituvchilar, ma‘naviyat targ‘ibotchilari, ota-onalardan yanada hushyor va ogoh bo‘lishni, yosh avlodning

g‘oyaviy-mafkuraviy immunitetini mustahkamlash borasidagi ishlar ko‘lamini yanada kengaytirishni talab qiladi.

Ma‘lumki, dunyoda g‘oyaviy hamda informatsion xurujlar, turli mafkuraviy tahdidlar avj olayotgan bugungi kunda yoshlarimiz ma‘naviyatini yuksaltirish, ularning tafakkurida sog‘lom dunyoqarash asoslarini shakllantirish eng muhim vazifadir. Bunday murakkab va tahlikali davrda ma‘naviy – ma‘rifiy ishlarni zamon talablari asosida tashkil etish yoshlarimizni turli mafkuraviy xurujlardan himoya qilish, yoshlarimizning hayotga ongli munosabatini shakllantirish, yon – atrofdagi yuz berayotgan voqealarga daxldorlik hissini oshirish, diniy ekstremizm, xalqaro terrorizm, zo‘rluk bilan joriy etish oqibatida xalqaro maydondagi ziddiyat va qarama – qarshiliklar kuchayib borayotgan bir vaziyatda o‘zimizning kelajak strategiyamizni aniq belgilab olish, g‘animlarning g‘arazli urinishlari nimaga qaratilganligini har tomonlama anglab olish va keng jamoatchilikka yetkazish, mamlakatimiz mustaqilligi, tinch va osoyishta hayotimizga xavf tug‘dirishi mumkin bo‘lgan tajovuzlarga qarshi izchil kurash olib borish, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan milliy g‘oya targ‘iboti va mafkuraviy jarayonlarning amaliy ishlari va ijobiy natijalarini yoshlarga tushuntira bilish, muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning “Ma‘naviyat va ma‘rifat ishini vatanparvarlik ishi, vijdon ishi” ekanligi to‘g‘risidagi qarashlarining mazmun-mohiyatini har bir fuqaroga, xususan, yoshlar ongi, qalbi va ichki dunyosiga singdirish zarur.

Xulosa.

Umuman, bugungi kunda internet tizimining ijtimoiy tarmoqlari salbiy ta‘sirining oldini olish uchun yoshlarning ma‘naviy salohiyatini oshirish, iqtidorli va iste‘dodli bolalarning o‘z ijodlarini erkin namoyon etish va axborot almashish imkoniyatlarini yanada kengaytirish maqsadida zamonaviy axborot texnologiyalari orqali maxsus internet dasturlarini ko‘proq tuzib, yoshlarga mo‘ljallangan turli mavzular bo‘yicha maqsadli loyiha va sohaviy tizimli dasturlarni tayyorlash va ularni doimiy tarzda yangilab borish maqsadga muvofiqdir. Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, ko‘zlar qalbning ko‘zgusi, nutq esa shaxsning ko‘zgusi. Biz zamonaviy jamiyat, yoshlarni vatanparvarlik va millatimizga muhabbat ruhida tarbiyalashga befarq bo‘lmasligimiz kerak. Ona tiliga muhabbatni kuchaytirish esa komil shaxsni tarbiyalashning yana bir muhim bosqichidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. D.R.Babayeva “Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi”, T – 2018y, 11b.
2. “Nutq madaniyati” (o‘quv metodik qo‘llanma) , T - 2007y, 46-47b.
3. Yahyo Muhammad Amin. Internetdagi tahdidlardan himoya T.: “Movaraunnahr”, 2016. –B.5.
4. Таранов П. Энциклопедия высокого ума. М., 1999, с.16
5. Rajabov H.I “Globallashuv sharoitida axborot tahdidlariga qarshi kurashishning zamonaviy texnologiyalarini yaratish muammolari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari T.: “Fan va texnologiya” 2020 yil, B-207

6. Rajabov H.I “Globallashuv sharoitida axborot tahdidlariga qarshi kurashishning zamonaviy texnologiyalarini yaratish muammolari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari T: 2020 yil, B-206-207.
7. Ташметов, Т. Х. (2020). Миллий ғояни ёшлар онгига сингдиришнинг замонавий усуллари. Academic Research in Educational Sciences, 1 (3), 326-331.
8. http://yuz.uz/zamon_yoshlar_nutqi
9. Toxirjon, U. (2024). BOSHLANGICH SINFLARDA O ‘QISHNI YETKAZIB OLISHGA QIYNALAYOTGAN O ‘QUVCHILAR BILAN ISHLASHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH. Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 9-13.
10. В статье представлена информация о роли педагогики и психологии в повышении качества и эффективности образования, формировании зрелого поколения. Данное научное исследование исследует решающую роль симбиотических взаимоотношений педагогики и психологии в . (2024). YANGI O‘ZBEKISTONDA IJTIMOY-INNOVATSION TADQIQOTLAR, 2(2), 5-12. <https://nuzjournals.uz/index.php/yoiit/article/view/79>
11. Toxirjon, U. (2024). XALQARO O ‘QISH SAVODXONLIGINI O ‘RGANISH (PIRLS). Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 14-17.
12. Umurzakova Kommuna. (2024). INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA ZAMONAVIY MARKETING KONSEPSIYALARIDAN FOYDALANISH. Yosh Tadqiqotchi Jurnal, 3(4), 1–9. Retrieved from <https://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/663>
13. Умурзакова Коммуна. (2024). ТРУДНОСТИ В ПРЕПОДАВАНИИ РУССКОГО ЯЗЫКА В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ И ПУТИ ИХ РЕШЕНИЯ. Yosh Tadqiqotchi Jurnal, 3(4), 10–18. Retrieved from <https://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/664>
14. Умурзакова Коммуна. (2024). ЦИФРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В ЭКАНОМИКЕ. Yosh Tadqiqotchi Jurnal, 3(4), 19–24. Retrieved from <https://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/665>
15. Умурзакова, К. (2024). НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ–ИМПУЛЬС К САМОРАЗВИТИЮ СТУДЕНТОВ. YANGI O‘ZBEKISTONDA IJTIMOY-INNOVATSION TADQIQOTLAR, 2(3), 1-4.
16. Kommuna, U. (2024). THE EFFECT OF THE DIGITAL ECONOMY ON EDUCATION. YANGI O‘ZBEKISTONDA IJTIMOY-INNOVATSION TADQIQOTLAR, 2(3), 5-7.
17. Обиджонов, М., & Умурзакова, К. (2024). ВЛИЯНИЕ ДЕЛОВОЙ ЭТИКИ НА БИЗНЕС СРЕДУ. YANGI O‘ZBEKISTONDA IJTIMOY-INNOVATSION TADQIQOTLAR, 2(3), 8-11.
18. Umurzakova Kommuna. (2024). USE OF MODERN MARKETING CONCEPTS IN AN INNOVATIVE ECONOMY . International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives, 2(3), 1–8. Retrieved from <https://izlanuvchi.uz/index.php/iz/article/view/48>
19. Kommuna Umurzakova. (2024). THE SPECIFICS OF THE TRANSLATION OF TRADITIONAL VALUES IN MODERN DIGITAL INFORMATION DISCOURSE . International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives, 2(3), 9–11. Retrieved from <https://izlanuvchi.uz/index.php/iz/article/view/49>

20. Umurzakova Kommuna. (2024). DOSTON IS A DEVELOPED GENRE OF FOLKLORE IN UZBEKISTAN (DESCRIPTION OF THE MAIN HERO OF EPIC POEM ALPAMYSH). International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives, 2(3), 12–17. Retrieved from <https://izlanuvchi.uz/index.php/iz/article/view/50>
21. Umurzakova, K. K. (2022). Russian language: Yesterday, today and tomorrow.
22. Umurzakova, K. K. (2022). RESEARCH ACTIVITY IS AN IMPULSE TO SELF-DEVELOPMENT OF STUDENTS. Frontline Social Sciences and History Journal, 2(03), 39-44.
23. Umurzakova, K. K. (2021). Problems of russian language teaching in higher education and their solutions. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, 11(11), 774-778.
24. Umurzakova, K. (2023). ADVANTAGES OF THE METHOD OF USING STORIES IN TEACHING THE RUSSIAN LANGUAGE. Экономика и социум, (6-2 (109)), 553-557.